„IKKI ESHIK” ROMANIDA QORA AMMA OBRAZI RUHIYATINING NUTQ TIPLARI ORQALI OCHILISHI

Xolmatova Ro’zixon Akmaljon qizi.
FarDU 1-kurs magistranti
+998975345998

ANNOTATSIYA: *Mazkur maqolada O’tkir Hoshimovaning “Ikki eshik orasi” romani misolida qahramon ruhiyatini turli nutq tiplari orqali anglashimiz mumkin.Misol uchun ichki nutq, tashqi nutq, parallel nutq vositalari orqali qahramon ruhiyati kengroq yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *monolog, dialog, ichki nutq, tashqi nutq, parallel nutq, tasvir.*

АННОТАЦИЯ: *В данной статье на примере романа Откира Гашимова «Между двумя дверями» мы можем понять психику героя через разные виды речи, например, шире психика героя освещается средствами внутренней речи и внешней речи.*

Ключевые слова: *монолог, диалог, внутренняя речь, внешняя речь, параллельная речь, образ.*

Key words: *Monologue, dialogue, internal speech, external speech, parallel speech, image.*

Inson ruhiyatini anglash, uni idrok etish yozuvchining asosiy vazifalaridan biridir.Yozuvchi o’z asarida qahramonlarning ruhiyatini tasvirlashda, turli xil ruhiyatni tasvirlovchi vositalardan foydalanadi. ,,Adabiyotshunos va munaqqid badiiy asardagi mavjud obrazlarni, badiiy tasvir vositalarini, asarning syujeti, kompozitsion qurilishi, yondosh san’at turlari yoki yondosh ilm sohasi bilan aloqasini chuqur tushunishi va baholi qudrat tushungarishi lozim. Chinakam san’at namunasi bo‘lgan badiiy asar

mazmun-mohiyati, asos negizi, u g‘oyaviy-badiiy jihatdan monofonik yoki polifonikmi - bundan qattiy nazar, adabiyotshunos-munaqqidning fikr maydonidir. Yozuvchi yaratgan bu ajib maydonda mavjud adabiy-badiiy unsurlar ustida batafsil fikr yuritmasdan turib muallifga «aql o‘rgatash» missiyasi, yozuvchi oldiga qandaydir talablar qo‘yish huquqi hech kimga berilgan emas’’[1]. Adabiyotshunos M.Qo‘chqorova esse, hikoya va qissalar haqida fikr yuritar ekan, “Hozirgi o‘zbek nasrida inson ruhiyatini kashf etishda adiblarimiz turfa xil psixologik tasvir vositalaridan, chunonchi, tush, xotira-xayol, ichki va tashqi monolog, dialog, polilog, muallif bayoni, peyzaj, psixologik tasvir, qahramonlarning mimika va jestlari, illyuziya, gallyusinatsiya, egizak obrazdan keng foydalanishmoqdaki, bular barchasi tadqiqotchilarimizdan yangicha nigoh bilan tadqiq etishni talab etmoqda”, degan xulosaga keladi.Qahramon ruhiyatini tasvirlashda nutq tiplarining o’rni alohidadir.’Nutq tiplariga ichki va tashqi monolog ,dialog ,polilog,muallif bayoni [2]kiradi. Monolog badiiy nutq tipi sifatida qahramon his-tuyg‘usini burilish pallasiga yo‘naltiradi, munosabat ziddiyati (tasdiq-inkor) vositasida voqe bo‘ladigan uslubiy birlikda dunyoqarash ijtimoiy-psixologik kolliziyaga uchraydi. Iqror, murojaat, ilinj, urg‘u, istak va imkon sintezi natijasida rivoya shakli ijtimoiy belgilarni xususiylashtiradi. Yaxlit tasvir-ifoda aslida qahramon bayonini kun tartibiga qo‘yadi, unda muqoyasa hamda nisbat raqobatga kirishadi, unda ichki nutq va tashqi nutq muqobillik kasb etadi’’. Qayoqdasan, bolam? Qaysi yurtlarda yuribsan?! Joning sog‘mi o‘zi? Mayli, oyoq-qo‘lsiz bo’lsang ham, birov zambilda ko‘tarib kelsayam jon derdim! Kaftimda olib yurardim! Otang yo’lingga termula-termula o‘tdi. Endi aqalli meni o‘z qo’ling bilan tuproqqa qo‘ysang- chi! Yo‘q, yig’layotganim yo‘q, bolam! Yig‘lamayman. Mabodo yigilasam ham... Yo‘q, o‘glim. Men yig’lasam, sen bezovta bo’lasan. Robiya kuyadi. Qizimning

[1] Сувон Мели. Сўзу сўз. – Тошкент: Шарқ, 2020.
[2] Баҳодир Карим. Абдулла Қодирий: танқид, таҳлил ва талқин. –Тошкент: Фан, 2006

ikki ko‘zi haliyam eshikda. Kutyapti. Seni kutyapti. Boshqa qiz bo’lsa, etagini qoqardi-yu bor-e, deb bittasiga tegardi- ketardi. Ne-ne joylardan sovchi chiqmadi. Tuqqandanmi-tug‘ishgandanmi, deb shuni aytadi-da! Bir qiz bo’lsa shunchalik bo’lar.[3]Bu parchada Qora ammaning ichki dialogi orqali uning ruhiy holati, ichki kechinmalari, istiroblari aks ettirilgan.O’g’li Kimsanning urushda halok bo’lganini aqlan tushunsada,ona qalbi bu achchiq haqiqatni tan olgisi kelmasdi.Qora amma bolasining qayerda bo’lsa ham tirik bo’lsa bo’ldi deya yana yeg’lasam sen bezovta bo’lasan deya istirob chekishi , o’zaro ichki kanfliktning vujudga kelishiga olib keladi. ,, Voy, o’lmasam! Yana o‘sha shum xayolga boryapmanmi? Kimsanim, jon bolam, kechir, gunohkor onangni! Bilaman, Xudo ko‘rsatmasin, shahid ketgan bo’lsang, arvohing chirqillaydi. Tirik bo’lsang, ertaga kelib yoqamdan olasan. «Nima qilib qo‘yding, shumkampir, senam onamisan, imonsiz», deysan! Nima desang haqqing bor. Qaysi ona o‘z yuragini o‘zi sug‘urib tuproqqa tashlaydi? Qaysi ona o‘z bolasiga o‘zi xiyonat qiladi?Qandoq qilay, jonim bolam? O‘zing o‘yla, axir. Robiyam, sening Robiyang, qovjiragan guldek ko‘zimning oldida so’lib boryapti. Yoshi o‘ttizga qarab ketyapti, o‘g‘lim! Sovchilar «qari qiz» deb qadamini uzib qo‘yganigayam ancha bo’ldi.Onangning gunohidan o‘t, Kimsan! Bu niyat xayolimga kelganiga ancha bo’lgandi. Ammo birovga aytish uyoqda tursin, o‘ylashgayam qo‘rqib yuruvdim.,,[4] Bu ichki dialogda Qora amma zimmasiga yuklatilgan yuk naqadar og’ir ekanligini his etish mumkin.Bir tomondan kimsanning taqdiri, ikkinchi tarafdan Robiyaning baxti, uchinchi tarafda esa o’z jigarining ayanchli qismati.Yozuvchi har uchala inson taqdirini go’yo, Qora ammaning hukmiga topshirib qo’ygandek.Ukasini nomus azobidan qutqarish uchun,o’g’lining suygan qizini unga xotinlikka berishi ,o’z qizidek bo’lib qolgan Robiyaning farzandi bor erkakka uzatishi bu holatlarning barchasi Qora

[3] O'tkir Hoshimov ,, Ikki eshik orasi ‘’romani
[4] O'tkir Hoshimov ,, Ikki eshik orasi ‘’romani

ammaning ruhiyatini naqadar kuchli ekanligi ko'rsatib beradi. - Ha! Xohlamayapsanmi? Qattaligini ayt, o'zim topib boraman. - Qo'lidagi tugilgan tokni laganga tashlab, ko'zimga termildi. Ichidagi «odamchalar» baralla hush- tak chala boshladi. Qarasam, xafa bo'lyapti.- Oboraman, amma, oboraman! - dedim yupatib.- Shoyad Kimsanimning kamandirini topsam... Muzaffar bilan bo'lgan bu suhbatda Qora ammaning ruhiy kechinmalari yaqqol ko'rinadi. Yillar o'tsada o'g'li haqida bir og'iz so'z eshitishni intizor kutgan ona ruhiyati tasvirlanadi.Qora ammaning so'nggi ilinji manashu haykal ochilishi tadbirrida o'g'lining biror tanishishini ko'rishu,undan o'g'lini so'rash. Shoyad Kimsanimning kamandirini topsam...Bu yerda yozuvchi uch nuqta qo'yish orqali ,farzandini yo'lini kuta- kuta qalbi lahta qon bo'lgan ona tasvirini berishga harakat qilgan .Yozuvchi qora amma ruhiyatini tasvirini berar ekan ,uning ruhiy holatida ham o'zaro konfliktni yuzaga kelganini anglashimiz mumkin. Farzandini o'lganini aqlan anglasada qalban uni qaytib kelishiga ishongan ona tasviri orqali ichki konflikt holatini ko'rishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1 Баҳодир Карим. Абдулла Қодирий: танқид, таҳлил ва талқин. – Тошкент: Фан, 2006

2 O'tkir Hoshimov ,, Ikki eshik orasi ‘’romani

3 Сувон Мели. Сўзу сўз. – Тошкент: Шарқ, 2020.